

UDK: 811.161.1

NASRIY MATNNING STILISTIK XUSUSIYATLARI VA MUALLIF USLUBINING INDIVIDUALLIGI

Munavvarova Mohira

Namangan Davlat Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi Phd talabasi

mohiramunavvarova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-2150-1899

Annotatsiya: Mazkur maqolada nasriy matnning stilistik xususiyatlari, badiiy nutqning lingvopoetik qurilishi va muallif uslubining individualligi ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori nasrda qo'llaniladigan sintaktik strukturalar, metafora va obrazlilik vositalari, nutq ritmi, kompozitsion qurilish hamda yozuvchi estetik dunyoqarashining lingvistik ifodasiga qaratilgan. Jahon va o'zbek adabiyotidan misollar asosida muallif uslubining shakllanish omillari, estetik funksiyalari va individual nutq usullarining o'quvchi idrokiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot komponent tahlili, stilistik modellash, komparativ yondashuv va matn lingvistikasi metodlariga tayanadi.

Kalit so'zlar: stilistika, nasriy matn, muallif uslubi, lingvopoetika, badiiy nutq, obrazlilik, kompozitsiya, individual uslub

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ И ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ АВТОРСКОГО СТИЛЯ

Мунавварова Мохира

*Аспирант кафедры узбекского языка и литературы Наманганского
государственного университета*

mohiramunavvarova@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются стилистические особенности прозаического текста, лингвопоэтическая структура художественной речи и индивидуальность авторского стиля. Основное внимание уделяется синтаксическим конструкциям, средствам образности, ритму прозы, композиционной организации и языковому выражению эстетического мировоззрения писателя. На примере мировой и узбекской литературы раскрываются факторы формирования авторского стиля и его воздействие на читательское восприятие. Исследование опирается на методы компонентного анализа, стилистического моделирования, сравнительного подхода и лингвистики текста

Ключевые слова: стилестика, проза, авторский стиль, лингвопоэтика, художественная речь, образность, композиция, индивидуальный стиль

STYLISTIC FEATURES OF PROSE AND THE INDIVIDUALITY OF THE AUTHOR'S STYLE

Munavvarova Mohira

*PhD student, Department of Uzbek Language and Literature, Namangan
State University*

mohiramunavvarova@gmail.com

Abstract: *This article examines the stylistic features of prose, the linguopoetic structure of artistic discourse, and the individuality of the author's style. The research focuses on syntactic patterns, figurative devices, rhythm, compositional structure, and the linguistic representation of the writer's aesthetic worldview. Using examples from both world and Uzbek literature, the study highlights the factors shaping an author's unique style and its impact on reader perception. The methodology includes component analysis, stylistic modeling, comparative literary approaches, and text linguistics.*

Keywords: *stylistics, prose, authorial style, linguopoetics, literary discourse, figurativeness, composition, individual style*

KIRISH

Nasriy matn badiiy adabiyotning eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, unda voqea, obraz va g'oyalar til vositasida o'ziga xos tarzda mujassamlanadi. Nasrning stilistik qurilishi yozuvchining dunyoqarashi, estetik maqsadi, madaniy tajribasi va individual nutq uslubini bevosita aks ettiradi. Shu bois nasriy matn stilistikasini o'rganish lingvistika, adabiyotshunoslik, semiotika va matn poetikasi kesishgan nuqtada dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi. Turli adiblarning o'ziga xos uslubi — so'z tanlovi, sintaksis, metaforik qatlam, nutq ritmi, kompozitsiya, majoziy tizim kabi ko'plab komponentlar orqali vujudga keladi. Masalan, Ernest Hemingueyning lakonik uslubi, Lev Tolstoyning psixologik tasvirga boy matni, O'tkir Hoshimovning samimiy va xalqona ohangi, Isajon Sultonning lingvopoetik nozikliklari — bularning barchasi individual stilistik tizimlarning yorqin namunalaridir. Mazkur maqolada nasriy matnning stilistik xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, muallif uslubining individualligini belgilovchi asosiy omillar ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. "Ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli kommunikatsiyada ham, subyektiv munosabatda ham o'zining asl

mohiyatini ko'rsata oladi" – deb yozadi tilshunos A. Abdullayev. Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Sanab o'tilgan uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotshunoslikda muallif uslub masalasi XX asr boshidan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. V. Vinogradov, R. Jakobson, M. Baxtin, B. Tomashevskiy asarlarida individual uslub lingvistik va poetik birlik sifatida izohlandi. Jahon adabiyotida: E. Heminguey – qisqa, soddalashtirilgan sintaksis orqali kuchli semantik bosim yaratgan. F. Kafka – metafora va absurd semantikasini psixologik tahlikalar bilan uyg'unlashtirgan. J. Joyce – ong oqimi texnikasi orqali sintaktik erkinlikka erishgan.

O'zbek adabiyotida: Abdulla Qodiriy – tarixiy kolorit va milliy tilning stilistik imkoniyatlarini keng qo'llagan. O'tkir Hoshimov – xalq tilining emosional-uslubiy qatlamlariga tayangan. Isajon Sulton – lingvopoetik detallar va metaforik tizim orqali uslub yaratgan. Xurshid Do'stmuhammad – sintaktik strukturalar, ramz, intertekstual elementlar bilan ishlagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar (A. Potebnya, U. Egan, Sh. Raxmonov, M. Qo'shoqboyeva) badiiy nasrning o'ziga xos stilistik qurilishini metaforik, sintaktik va kompozitsion omillar bilan bog'lab o'rganishgan. Nasriy matnning stilistik xususiyatlari va muallif uslubining individualligini o'rganish adabiyotshunoslik, tilshunoslik, lingvopoetika, diskurs nazariyasi va semiotika kabi turli ilmiy yo'nalishlar kesishgan nuqtada shakllangan. XX asrdan boshlab mazkur masala atrofida turli nazariy maktablar vujudga keldi va har bir maktab muallif uslubini o'ziga xos metodlar orqali izohladi. Rus formalistlari (B. Eyxenbaum, V. Shklovskiy, B. Tomashevskiy) badiiy matnni "tilning maxsus tashkil etilgan shakli" sifatida talqin qilgan. Ularning fikricha: har bir nasriy asarda fabula va syujet, tilning poetik funksiyasi, shakl va mazmun uyg'unligi asosiy ahamiyatga ega.

Shklovskiy "ostranenie" — yotlashtirish nazariyasini ilgari surib, muallif uslubining o'ziga xosligi tasvirni noodatiy shaklda berishda ko'rinishini ta'kidlagan.

Bu nazariya Hemingwayning qisqa, lekin kuchli semantik yuklamaga ega gaplari, Kafka matnlaridagi psixologik “uzilishlar” kabi elementlarni izohlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. R. Jakobson, N. Trubetskoy kabi olimlar badiiy matndan ko‘ra badiiylarning til vositalari orqali yaratilish mexanizmini o‘rgangan. Jakobsonning fikricha: badiiy nutqning markazida poetik funktsiya, til birliklarining ekspressivligi, nutqning asosiy ritmik strukturalari turadi. Bu qarash adabiyot matnining stilistik xususiyatini lingvistik tahlil qilish uchun asos beradi. M. Baxtin badiiy nasrni dialogik tabiatga ega ko‘p ovozli matn sifatida baholaydi. Uning fikriga ko‘ra: muallif uslubi — bu bir ovoz emas, balki ko‘plab ijtimoiy nutq turlarining o‘zaro munosabatidir; romanda “polifoniya” (ko‘p nutqlilik) mavjud. Baxtin nazariyasi Dostoevskiy, Tolstoy, Cho‘lpon, Qodiriy kabi yozuvchilarning ko‘p qatlamli matnlarini tahlil qilishda muhim metodologik manbaga aylangan. Barthes muallif uslubini tushunishda “muallifning o‘limi” g‘oyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra: badiiy matn — talqinlar majmui, muallif uslubi — “o‘quvchi tafakkurida qayta yaratiladigan tizim”. Bu yondashuv o‘quvchi psixologiyasi, idrok mexanizmi va matnning estetik universalligini o‘rganishda qo‘llanadi. Derridaning dekonstruksiya nazariyasi esa matndagi ko‘p ma’nolilikni ochib beradi. Ushbu yondashuv (Lakoff, Turner, Stokwell) muallif uslubini inson ongidagi: metafora tizimi, konseptual strukturalar, mental modellar asosida izohlaydi. Masalan, o‘zbek adabiyotida “yo‘l” konsepti (Abdulla Qodiriy, Tog‘ay Murod, Isajon Sulton asarlarida) muallif estetik dunyoqarashining markaziy ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida stilistika masalalarini Sh. Raxmonov, A. G‘ulomov, N. Mahmudov, M. Qo‘shoqboyeva, D. Qurbonova kabi olimlar tadqiq qilgan. Sh. Raxmonov: muallif uslubi til birliklaridan ongli foydalanish orqali paydo bo‘ladi. M. Qo‘shoqboyeva: badiiy matn stilistikasida metaforik qatlamning roli beqiyos.

A. G‘ulomov: matn data individual sintaksis — eng kuchli uslubiy indikator.

METADOLOGIYA

Tatqiqotning asosiy uslubiy vositalarni umumlashtirib quyidagilarni sanab o‘tish mumkin



Yozuvchi Nazar Eshonqulning hikoya janridagi ko'plab asarlari kitobxonlarning e'tirofiga sazovor bo'lgan, bu jozibadorlikning asosi, albatta, hikoya tiliga bevosita bog'lanadi. Tahlil jarayonida ma'lum bo'ldiki, yozuvchi til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanib, nasriy asarlarining badiiy quvvatini oshiradi. Uning hikoyalarida ritorik so'roqlardan foydalanishda ham o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsionalekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so'roq gap deyiladi. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi⁴. Nasriy asarlarda ham ritorik so'roq gaplardan faol foydalaniladi, jumladan Nazar Eshonqulda ham buni kuzatish mumkin. Masalan, U balkim bir hafta oldin qishlog'ining chetidagi to'qayda o'sadigan bo'liq yalpizlarni eslagan va so'ng unutgani uchun o'sha kuni yuzaga chiqar-chiqmas, yana yashiringan – hali o'zi ham nima deb atashni bilmagan botiniy tuyg'ulari va xotiralar bugun kitob o'qib yotganida o'z-o'zidan shuurini band etib, bir zum suvga yashiringan po'kakdek xayoliga lip etib qalqib chiqqanu, unga yalpiz solingan sho'rva hidini

eslatgandir? (N.Eshonqul, Yalpiz hidi) Nazar Eshonqul o'z nasriy asarlarida, jumladan, hikoyalarida sintaktik birliklardan ustalik bilan foydalangan:



Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir. Y.M.Lotman «matn ifodalilik (ma'lum bir fikr ifodalangan bo'lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi me'yoriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim»ligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishi yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi. Inversiya – bu she'riy asarlarda badiiy ta'sirchanlikni oshiruvchi eng muhim vositalardan hisoblanadi, biroq u nasriy asarlarda ham o'ziga xos sintaktik-stilikstik vazifa bajaradi: "Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni

insofga chaqirdi: - Siz bunday ovora bo'lib yurmang, - dedi u. - Biron erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o'zim uyingizga olib borib tashlayman. -Bu qishloqda erkak yo'q, - dedi Bayna momo zarda bilan, so'ng elkasidagi bug'doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi. Gapirayotganda ovozi titrab ketdi. Tegirmonchi tilini tishlab qoldi. Bayna momo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog'li xalqning orini ko'targan, nomini chiqargan" ("Shamolni tutib bo'lmaydi") yoki "- Yo'q, - dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo'lishi kerak degan ohangda gapirishidan g'ashim kelib. - Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar. Yomonlik yaxshilik bo'lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo'lsa, u yomonlikdir, - dedim. ("Maymun yetaklagan odam") mazkur parchada ko'chirma gap shaklida bo'lsa ham ayrim bo'laklar sintaktik jihatdan o'z o'rnida emas, boshqa o'rinda kelib, uslubiy ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, Nazar Eshonqul nasrida gap bo'laklari, aksariyat hollarda odatdagi tartibda joylashgan, ba'zan dialogik nutqlarda ko'chirmab gapli qurilmalarda muallif gapib kesimdan keyin joylashadi: "- Endi xoru zorlikda o'lib ketasan, - xirilladi u. - Molingni topshir, deganda ering qo'lga miltiq ushlab biz bilan sichqon-mushuk o'ynadi. Mana, endi unga hech narsaning keragi yo'q. Mirshablar Rayim polvonning qo'radagi podasi-yu otlarini haydab ketishdi".

TATQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Nasriy matnning stilistik tizimi ko'p qatlamli. Metafora, dialog, kompozitsiya, grammatik parallelizmlar va semantik kontrastlar muallif uslubining asosiy komponentlarini shakllantiradi. Muallif uslubida dunyoqarashning roli katta Tolstoy — psixologik chuqurlik, Heminguey — lakoniklik, O'tkir Hoshimov — milliylik va samimiyat, Isajon Sulton — metaforik estetikani ustuvor qiladi. Individual uslub matn ritmi orqali namoyon bo'ladi. Ba'zi adiblar tez, dinamik ritmni; boshqalari esa sekin, tafakkurga yo'naltirilgan ritmni tanlaydi. Obrazlilik vositalari muallifning madaniy tajribasiga bog'liq. Sharq adabiyotida ramzlar (ko'z, yo'l, nur, suv), G'arb adabiyotida esa ekzistensial metaforalar yetakchidir. Nasrning lingvistik qurilishi o'quvchi idrokiga bevosita ta'sir qiladi. Sintaksis soddalashgan sari — dinamika kuchayadi. Sintaksis murakkablashgan sari — psixologik chuqurlik ortadi. O'xshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib,

ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkreteroq, bo'rttiribroq ifodalash»ga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari. Masalan: Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo'la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo'lgan o'g'lini ham otib tashlaganidan xursand edi - u shu ketishi bilan qishloqning ko'p narsasini haydab ketdi - endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g'arib va notavon ko'rinardi. "(N.Eshonqul). Bu o'rinda qishloq minorasi qulagan shahardek vayron, huvillagan, fayzi ketgan bir joy kabi tasvirlanmoqda. Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar»⁸ Emotsional gaplar. So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlar (chehra, o'ktam, tabassum / turq, qo'pol, tirjaymoq kabi) mavjud bo'ladi. O'sha so'zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo'rquv, g'azab kabi psixologik jarayonlarni⁹ hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'z va iboralar, his-tuyg'u ifodalovchi undovlar (oh, voy sho'rim, eh attang, bay-bay-bay kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi¹⁰: - E'tiqod! - dedi u g'ussali ohangda, - agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib yonib-kuyib ... e'tiqod qo'yan

narsangiz puch, yolgʻon va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sigʻingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan xuddi yoʻldan chiqib ketgan shaldur-shuldur, boʻm-boʻsh aravaga aylanardi. Siz esa boʻshliqni toʻldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi eʼtiqod?! Men bu soʻzni ishlatmay qoʻyganimga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu soʻz shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam koʻnglim ayniydi.”(Nazar Eshonqul) Mazkur parchada garchi emotsionallik ustuvor boʻlsa-da unda qarama-qarshi maʼnoli birliklar ifodasi ham mavjud, masalan, ezgulik va razolat bir-biriga zid qoʻyilgan, bu esa, ifodaning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Nasriy matnning stilistik xususiyatlarini tadqiq etish badiiy asarning mazmuniy-estetik tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, muallif uslubining individualligi til birliklaridan ongli foydalanish, nutq ritmini boshqarish, metaforik tizimni yaratish va kompozitsion struktura orqali shakllanadi. Jahon va oʻzbek adabiyotidagi stilistik tajriba shuni tasdiqlaydiki, individual uslub — yozuvchining estetik pozitsiyasini namoyon etuvchi asosiy belgidir va uni lingvopoetik yondashuvsiz toʻliq anglab boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

1. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.—Toshkent:“Fan”, 2007. 68-b.
2. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. —Москва, 1970, с.67.
3. Slisikin G.G. Lingvokulturnaya kompetensiya i tekst. — M.: ITDGK "Gnosis", 2004. — 384 b..
4. Shukurov R. Sintaktik parallellizmning uslubiy vazifalari // OʻTA, 2004, №2, 73-b
5. Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. —Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1987. 6-b.
6. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yoʻllarini izlab... // Oʻzbek tili va adabiyoti. — 2009. — № 5. — B. 3-10.